

AMIR TEMUR BUYUK DAVLAT ARBOBI

Yoqubova Hulkaroy Hayrullo qizi
Andijon davlat chet tillar instituti talabasi
Xomidova Malohat Oktyabrjon qizi

Annotatsiya: Amir Temur (1336–1405) Markaziy Osiyo tarixidagi eng buyuk shaxslaridan biri bo‘lib, buyuk davlat arbobi, strateg va jangovar qo‘mondon sifatida tanilgan. U 14-asr oxiri va 15-asr boshlarida o‘z nomi bilan atalgan Temuriylar imperiyasiga asos soldi. Amir Temur kuchli markazlashgan davlat tuzumi yaratib, qonun va adolatni boshqaruvning asosiy tamoyillariga aylantirdi. Uning "Temur tuzuklari" asari davlat boshqaruvi, harbiy strategiya va siyosiy tamoyillar borasida muhim manba hisoblanadi.

Kalit so‘zlari: Buyuk, davlat, sarkarda, fan, shoir, armiya, madaniyat, daho, Harbiy urushlar, kuchlar, urushlar, kurashlar, Amir Temur, lashkarboshi, ilm-fan.

Аннотация: Амир Темур (1336–1405) – одна из величайших фигур в истории Средней Азии, известный как великий государственный деятель, стратег и военачальник. В конце 14 - начале 15 веков он основал империю Тимуридов, названную его именем. Амир Темур создал сильную централизованную государственную систему и сделал закон и справедливость главными принципами управления. Его работа «Тузуклари Темур» считается важным источником по государственному управлению, военной стратегии и политическим принципам.

Ключевые слова: Великое, государство, полководец, наука, поэт, армия, культура, гений, Военные войны, силы, войны, борьба, Амир Темур, военачальник, наука.

Abstract: Amir Temur (1336–1405) is one of the greatest figures in the history of Central Asia, known as a great statesman, strategist and military commander. In the late 14th and early 15th centuries, he founded the Timurid Empire named after him. Amir Temur created a strong centralized state system and made law and justice the main principles of governance. His work "Tuzuklari Temur" is considered an important source on state management, military strategy and political principles

Key words: Great, state, general, science, poet, army, culture, genius, Military wars, forces, wars, struggles, Amir Temur, army chief, science.

Amir Temur (Tamerlan) 1336-yil 9-aprel kuni hozirgi O‘zbekiston hududida joylashgan Kesh (hozirgi Shahrisabz) shahriga yaqin bo‘lgan Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘ida tug‘ilgan. U Barlos qabilasiga mansub bo‘lib, otasi Muhammad Tarag‘ay Barlo qabilasining taniqli oqsoqollaridan biri bo‘lgan. Amir Temur yoshlik chog‘ida mardlik

va rahbarlik qobiliyatlari bilan ajralib turgan. Amir Temur keyinchalik buyuk sarkarda va davlat arbobi bo'lib, Temuriylar imperiyasiga asos solgan. U o'zining harbiy yurishlari va madaniy rivojlanishga qo'shgan hissasi bilan dunyo tarixida katta iz qoldirgan. Amir Temurning yoshligi Keshda kechdi. Yetti yoshga to'lgach, otasi uni o'qishga berdi. Amir Temur yoshlik chog'laridanoq maxsus murabbiylar nazorati ostida chavandozlik, ovchilik, kamondan nishonga o'q uzish, boshqa turli mashq va harbiy o'yinlar bilan mashg'ul bo'lgan. Shu asnoda Amir Temur tulporlarni saralab ajrata oladigan mohir chavandoz va dovyurak bahodir bo'lib voyaga yetgan. Amir Temur tabiatan og'ir, bosiq, teran fikrli va idrokli hamda nihoyatda ziyrak, kishilardagi qobiliyat, fazilat, ayniqsa, samimiyatni tezda fahmlab oladigan inson bo'lgan. Shu tufayli o'spirinlik chog'laridayoq atrofiga tengqurlari orasidan sadoqatli do'stlarni jalb qila olgan. Uning atrofiga bolalikdagi do'stlari va maktabdoshlar (Abbos bahodur, Jahonshohbek, Qimori inoq, Sulaymonshohbek, Idiku Temur, Sayfuddinbek, Hindushoh, Qarqara va boshqalar) to'planishib, birgalikda mashqqilar, musobaqalarda ishtirok etishar, astasekin navkar bo'lishib va harbiy guruhga birlashib, harbiy bo'linma sifatida shakllana borgan. Keyinchalik ular Amir Temur qo'shinida lashkarboshilik darajasigacha ko'tarilganlar. Amir Temur o'zining ilk harbiy faoliyatini qo'l ostidagi navkarlari bilan ayrim viloyat amirlariga xizmat qilishdan boshlagan; ularning o'zaro kurashlarida qatnashib, jasorat ko'rsatgan, janglarda chiniqqan, harbiy mahoratini oshirgan. Dong'i butun Qashqadaryo vohasiga yoyilgan. Amir Temurning aqlu zakovati, shijoati va shuhrati uni Movarounnahrning nufuzli amirlaridan amir Xizr Yasovuriy va amir Qazag'on bilan yaqinlashtirdi. Xondamirning yozishicha, otasi amir Tarag'oy Amir Temurni avval (1355) amir Joku barlosning qizi Nurmushk og'oga, so'ngra o'sha yili (1355) Qazag'onning nabirasi va amir Husaynning singlisi O'ljoy Turkon og'oga uylantiradi. Keyingi nikoh tuayli Amir Temur bilan Balx hokimi amir Husayn o'rtasida ittifoq yuzaga kelib, ular birgalikda mo'g'ullarga qarshi kurashadilar. Amir Temurning Movarounnahrni birlashtirish yo'lidagi harakati 14-asrning 60-yillari boshlaridan boshlandi. 14-asr ning 50-yillari oxirida Movarounahrda amirlarning o'zaro kurashi kuchayib, amir Qazag'on o'ldirildi. Mamlakatda siyosiy parokandalik avjiga chiqib, og'ir tanglik sodir bo'ldi. Xondamirning "Habib ussiyar" kitobida keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, ulus o'nga yaqin mustaqil beklklarga bo'linib ketgan.

Samarqand viloyatida amir Bayon sulduz, Keshda amir Hoji barlos, Xo'jandda amir Boyazid jaloir, Balxda Uljoy Bug'a sulduz, Shibirg'onda Muhammad I Xoja Aperdi nayman, Ko'histonda Badaxshon shohi amir Sotilmish, Xuttalonda Kayxusrav, Hisori Shodmon hududida amir Husayn va amir Xizr Yasovuriylar o'zlarini hokimi mutlaq deb e'lon qiladilar. Bu davrda Chig'atoy ulusining sharqiy qismi - Yettisuv va Sharqiy Turkistonda hukmronlik qilayotgan mo'g'ul xonlari Movarounnahrda og'ir siyosiy vaziyatdan foydalanib, bu yerda o'z hokimiyatini o'rnatishga harakat kiladilar.

Jeta xonlaridan Tug‘luq Temur va uning vorisi Ilyosxoja 1360-61 va 1365 yillarda Movarounnahrda bir necha bor bostirib kiradilar. Mo‘g‘ul xonlarining bosqinchilik yurishlari va zulmiga karshi xalq harakati boshlanadi. Biroq, Movarounnahr amirlari xalqqa bosh bo‘lib, mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi kurashga jur‘at eta olmaydilar. Ularning bir qismi dushman tarafiga o‘tadi, ikkinchi qismi esa el-yurtni tark etib, o‘zga mamlakatlardan boshpana izlaydilar.

Amir Temurning amakisi, Kesh viloyatining hukmdori amir Hoji barlos Xurosonga qochadi. Mana shunday og‘ir pallada siyosat maydoniga Amir Temur kiradi. Mo‘g‘ullarga qarshi turish uchun kuchlar nisbati teng emasligini hisobga olgan 24 yoshli Amir Temur 1360 yilning boshida Tug‘luq Temur tomonidan Keshga yuborilgan beklar bilan kelishadi. Sharoit taqozosi bilan xon xizmatiga o‘tib, uning yorlig‘i bilan o‘z viloyatining dorug‘asn etib tayin qilinadi. Shubhasiz, bu noiloqliqdan qo‘yilgan siyosiy hamda strategik qadam bo‘lib, bu bilan Amir Temur mo‘g‘ullarning navbatdagi talontarojining oddini olgan, mamlakat va xalqni falokatdan qutqargan edi. Biroq, Movarounnaxrning hukmdori etib tayin qilingan Ilyosxoja va uning lashkarboshisi amir Bekkichik bilan Amir Temurning murosasi kelishmay qoladi. Shu sababdan 1361 yilning oxirida u mamlakatni tark etishga majbur bo‘ladi.

Oltin O‘rda davlati – To‘qtamishxonning yengilishlaridan keyin Temurbek Oltin O‘rdada o‘zi xon belgilab keladi va savdo aloqalarini saqlaydi. Oltin O‘rda Temurbek davlati bo‘yinturug‘i ostiga to‘la kirmasada ortiq xavf tug‘dirmaydigan davlatga aylanadi. Oltin O‘rda davlatining cho‘kish davri boshlanadi. Mamluqlilar davlati – Shomdagi qaqshatqich yengilishdan keyin Mamluqli davlati Temurbekning so‘rovlarini, elchi Atalmishni qo‘yib yuborish va so‘ralgan mollarni berish, o‘taydi. Urushdan oldin va keyin bir necha bora 2 tomondan ham elchilar borib keladi. Maktublar almashiniladi. Temurbek davlati bo‘yinturug‘i ostiga kiradi.

Jete davlati – 5 bora og‘ir yurishlardan so‘ng Jete yoki Mo‘g‘uliston Temurbek davlati bo‘yinturug‘i ostiga to‘la kirmasada ortiq xavf tug‘dirmaydigan davlatga aylanadi. Dehli sultonligi – Dehliidagi qayta tiklanib bo‘lmas yengilishdan keyin Temurbek davlati bo‘yinturug‘i ostiga kiradi. Usmonli sultonligi – Anqara urushidagi qaqshatqich yengilishdan keyin Usmonli davlati Temurbek davlati bo‘yinturug‘i ostiga kiradi. Usmonli davlatida bir necha yillik Fitrat chog‘i boshlanadi.

Gurji qirolligi – bir necha bora talanishi va bosib olinishi ortidan Temurbek davlati bo‘yinturug‘i ostiga kiradi. Yillik belgilangan soliq to‘lashi belgilanadi. Eron, Afg‘oniston va Kavkazdagi davlatlar – barchasi Temurbek davlati ichiga kiradi. Rus davlati – To‘qtamishxonning yengilishi ortidan Temurbekka bir qancha sovg‘a salomlar o‘taydi. Bir qancha shaharlari tekislanadi. Moskva yag‘mosi esa tarixchilar orasida tortishmali. Ko‘plab rus tarixchilari, aynan kim Yakubovskiy. A.Y va Grekov. B. D „Oltin O‘rda va uning qulashi“(Zolotaya Orda i ee padenie) kitobida Temurbek Mashkav(Moskva)ni olmaganligi, Mashkav olinganligi va talanganligi to‘g‘risida o‘z

kitoblarida bilgi bergan Nazimiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiylarning jug'rofiya (geografiya) bilimlari Rus geografiyasi borasida yetarli emasligini, ular ikkovlari birdek adashib Ryazanni Moskva deb o'ylaganliklarini aytib o'tadilar. Biroq Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiyda Moskvani va undanda uzoqroqda, shimolroqda bo'lgan yerlarningda aniq geografik bilimlari borligiga tegishli bir necha bitiklar uchraydi. Fransiya qirolligi – Usmonli davlati yengilishi ortidan Temurbek davlati bilan savdo aloqalari o'rnatilishi kelishiladi. Elchilar va maktublar almashinuvi bo'ladi. Kastiliya (Ispaniya) qirolligi – Usmonli davlati yengilishi ortidan Temurbek davlati bilan savdo aloqalarini o'rnatilishi kelishiladi. Elchilar va maktublar almashinuvi bo'ladi.

Vizantiya imperiyasi – Usmonli davlati yengilishi ortidan Istanbul uchun Temurbekka juzya (din solig'i) ni o'taydi. Elchilar almashinuvi bo'ladi. Xitoy davlati (Ming imperiyasi – Xitoy bilan savdo aloqalari va elchilar almashinuvi mavjud bo'lgan. Temurbekning o'limi ortidan Xitoy yurishi qoldiriladi. Amir Temurning harbiy yurishlari, jangu jadallarining oqibatlariga baho berilar ekan, shuni alohida ta'kidlash kerakki, uning faoliyati qo'yilgan maqsad va rejaları jihatidan ikki bosqichga bo'linadi. Birinchi bosqich (1360 – 86) da Amir Temur Movarounnahrda markazlashgan davlat tuzish yo'lida kurashdi, Movarounnahrni birlashtirishdan manfaatdor bo'lgan mahalliy zodagonlardan iborat ijtimoiy kuchlar (mulkdor dehqonlar, harbiylar, hunarmandlar, savdogarlar va ruhoniylar) yordamida tarqoq mulklarni birlashtirish uchun kurash olib bordi.

Amir Temurning bu davrdagi faoliyati O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti taraqqiyoti yo'lida shubhasiz ulkan ijobiy ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda tarqoqlik tugatilib, markazlashgan davlatning tashkil topishi ijobiy oqibatlarga olib keldi. Mamlakat ichki kuchlarini va mo'g'ullarning bir yarim asrlik hukmronligi natijasida bo'hronga uchragan iqtisodni tiklash uchun qulayroq sharoit vujudga keldi. Ayni vaqtda xo'jalikning asosi bo'lgan dehqonchilikda muayyan siljishlar ro'y berdi. Yangi-yangi ariq (kanal) lar qazilib, dehqonchilik kengayadi.

Hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo rivojlandi, fan va madaniyat ravnaq topib, shaharlar obodlashdi va gavjumlashdi. Amir Temur biror mamlakatni tasarrufiga olishdan avval albatta o'sha joy aholisiga tinchlik yo'lini taklif etgan, bu yo'l inkor etilgan holdagina harbiy kuch ishlatgan.

Vafoti 1405 yil (bundan 616 yil oldin) – O'tror hokimi Berdibek saroyining Temur uchun maxsus jihozlangan xonasida Xitoy yurishiga o'tlangan buyuk lashkarboshi, davlat arbobi Amir Temur vafot etdi. Bu hodisa hijriy 807 yil sha'bon oyining o'n yettinchi kuni (milodiy 1405 yil 18 fevralda) yuz berdi. Buyuk saltanat asoschisi namozshom bilan xufton orasida, "Tavhid" kalimasini takror-takror aytib, hayotdan ko'z yumdi. Tarixchi Amriddin Berdimurodovning qayd etishicha, Amir Temurning

vafoti tafsilotlarini yozgan tarixchilar uning aynan qaysi kasallik oqibatida vafot etganligi haqida aniq ma'lumot bermaganlar. Shunday bo'lsa-da, sohibqironning o'limi haqida yozgan Hofizi Abro' va Ibn Arabshohlar sohibqiron kasalligining kelib chiqishini aniqlashda anchayin oydinlik kirituvchi ma'lumotlarni keltiradilar. Mustaqillik yillarida boy ma'naviy merosimiz, milliy-qadriyatlarimiz, shu jumladan ulug' bobomiz Sohibqiron Amir Temurning jahon madaniyati tarixidagi o'rnini tiklandi va temuriylar tarixini chuqur o'rganish, uni targ'ib qilishga alohida e'tibor qaratildi. Bugungi kunda Amir Temur merosini o'rganish bo'yicha Yevropa tillarida va Sharq tillarida minglab kitoblar yozilgan, ko'pdan-ko'p suratlari ishlangan. Amir Temur o'z avlodlariga nafaqat katta saltanatni, ayni vaqtda yaxshi an'analarni ham meros qoldirdi. Barcha Temuriylar Amir Temurning obodonchilik, mamlakatni adolat bilan boshqarish, ilm-fan, madaniyat

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q-T., "Sharq", 1998.
2. Karimov I.A. "O'zbekiston buyuk kelajak sari" T., "O'zbekiston", 1999
3. Amir Temur o'g'itlari. T.: Cho'lpon, 1992.
4. Amir Temur va temuriylar davrida madaniyat va sanoat Toshkent, Adabiyot va sanoat nashriyoti, 1996
5. Amir Temur haqida https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Amir_Temur.